



INTEGRATSIYALASHGAN DASTURLAR.
INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING
SAMARADORLIGI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Berdiyeva Mahfuza Baxtiyor qizi

E-mail: mahfuzaberdiyeva27@gmail.com

Boshlang'ich talim nazariyasi kafedrasida

Assistent o'qituvchisi

Umarova Dilafruz Anvarovna

E-mail: umarovadilaftuz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada integratsiyalashgan dasturlar haqida uning ijobiy va salbiy tomonlari haqida fikr yuritilgan. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish uchun qanday usullardan foydalanish, fanlararo va mavzulararo bir biriga bog'lashda har xil metodlar qo'llash borasida gap ketgan. Bundan tashqari, fanlarni o'zaro integratsiya qilish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlashga, tafakkurini kengaytirishga yordam berishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: integratsiya, dars, ta'lim, fan, usul, platforma, dastur, bilim, mustaqil, tafakkur.

Abstract. This article discusses integrated programs, their positive and negative aspects. It discusses what methods to use to increase the effectiveness of integrated lessons, and the use of various methods for connecting interdisciplinary and inter-thematic subjects. In addition, it is stated that the process of integrating subjects helps students to think independently and expand their thinking.

Keywords: integration, lesson, education, science, method, platform, program, knowledge, independent, thinking.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются интегрированные программы, их плюсы и минусы. В нем обсуждается, какие методы следует



использовать для повышения эффективности интегрированных уроков, а также использование различных методов для связи междисциплинарных и междисциплинарных тем. Кроме того, подчеркивается, что процесс интеграции предметов помогает учащимся мыслить самостоятельно и расширять свое мышление.

Ключевые слова: интеграция, урок, образование, наука, метод, платформа, программа, знание, самостоятельность, мышление.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda har bir shaxsdan keng ko‘lamli bilim, malaka va ko‘nikmalar talab etiladi. An‘anaviy ta‘lim tizimi ko‘pincha bilimlarni alohida fanlar doirasida shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, integratsiyalashgan ta‘lim yondashuvi bilimlarni uyg‘un holda berish, o‘quvchilarning tizimli tafakkurini shakllantirishga qaratilgan. Integratsiyalashgan dasturlar va darslar yordamida fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatish, bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish va o‘quvchilarda real hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Asosiy qism

Integratsiya — bu turli bilim sohalarini o‘zaro uyg‘unlashtirib, o‘quvchini ko‘p qirrali va chuqur bilim olishiga imkon beradigan metodologik yondashuvdir. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan ta‘lim tizimlarida integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Integratsiya (lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan)— bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. Shu bilan birga fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni hisoblanadi.

Integratsiyalashgan dastur — bu ikki yoki undan ortiq fanlarni yagona maqsad asosida birlashtirgan, o‘zaro bog‘liq bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘quv dasturidir. Bu yondashuv ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda real hayotdagi murakkab vaziyatlarni yechish uchun zarur bo‘lgan ko‘p



tomonlama bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi mustaqil fikrlashini oshirishga ham yetarli darajada xizmat qiladi. Integratsiyalashgan dasturlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud ular quyadigilar:

Fanlar o'rtasidagi chegaralarni kamaytiradi; Bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini osonlashtiradi; Mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi; O'quvchilarda kompleks yondashuv asosida muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Integratsiyani iivojlantiruvchi shakllar ham yo'q emas. Misol qiladigan bo'lsak,

Tematik integratsiya: Bir nechta fanlar bir umumiy mavzu atrofida birlashtiriladi. Masalan, Boshlang'ich sinflarning ona tili, o'qish, matematika fanlarini oladigan bo'lsak, Matematik misollar javobi ostida ona tili yoki o'qish faniga oid yashirin so'z berilgan bo'ladi. Misolni yechish orqali o'quvchilar bu atamani topishadi. Bu jarayon orqali o'quvchilarning tafakkuri va so'z boyligi ham oshadi.

Kontseptual integratsiya: Asosiy tushunchalar atrofida fanlar o'zaro bog'lanadi. Bunda har xil fanlar orasida bitta mavzu emas, bitta tema orqali fanlarni birlashtiradi.

Muammoli integratsiya: Muammoni hal qilish uchun turli fanlardan bilim va usullar qo'llaniladi. Biror bir muammo yuzasidan har xil fanlarni o'z o'rnida qo'llash tushunildi.

Integratsiyalashgan dasturlar va integratsiyalashgan dars jarayonida o'quvchilar zerikishi kuzatilmaydi.

Integratsiyalashgan dars — bu o'quvchilarga bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradigan, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan o'quv faoliyati.

Uning tashkil etish usullari ham bor. Loyiha usuli: O'quvchilar fanlararo loyihalar ustida ishlaydi. Muammoli vaziyat yaratish: O'quvchilarga real muammoni yechish uchun bir nechta fanlardan bilimlarni qo'llash topshiriladi.

Integratsiyalashgan seminarlar: Bir nechta fan o'qituvchilari ishtirokida seminar darslar tashkil etiladi. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasida hamkorlikda amalga oshiriladigan usul trening ham bo'la oladi.



Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar: Fanlararo muammolar asosida rollar taqsimlanadi va vaziyatlar hal qilinadi. Shu orqali integratsiyalashgan ta'lim samarali o'tadi.

Integratsiyalashgan ta'lim samarali bo'lishi uchun har bir ishtirokchi kreativ bo'lishi har qanday muammoga yechim topa olishi lozim.

Integratsiyalashgan ta'lim va darsning asosiy tavsifiy xususiyatlari dars jarayoning samarali otishi uchun asosiy imkon yaratib beradi. O'ganilayotgan materialning nazariy va ishlab chiqarish ta'limining sintezi; faoliyat sintezi; umumta'lim fanlarning o'zaro sintezi; ikki yoki undan ortiq pedagog faoliyatining sintezi va boshqalar.

Integrallashgan dars modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'qish davomida nazariy va amaliyot birga qo'shib o'qitiladi. Bunda birinchi navbatda 6 soatlik bitta mashg'ulot davomida maxsus texnologiya va ishlab chiqarish ta'limning birgalikda qo'shib olib borilishi o'quvchilar bilimi uchun yaxshi samara beradi.

Mutaxassislar tomonidan integratsiyalashgan darsdan foydalanishning quyidagi ijobiy natijalarini ajratishgan:

1. O'quvchilarning o'rganilayotgan materialning nisbatan tugallangan yaxlit qismi chuqur va mustahkam o'zlashtirishlari ta'minlandi.

2. O'quvchilarni faoliyatining turli tuman ko'rinish va shakllariga jalb qilish. Faoliyatni tashkil etishning frontal, guruh va individual shakllarni maqbul tarzda birga qo'shib olib borish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

3. Pedagog va o'quvchilarning birgalikda ijod qilishlariga keng imkoniyatlar yaratiladi, o'quv jarayonida hamkorlik, o'zaro yordam, ta'limning insonparvarlashuvi namoyon bo'ladi.

4. Pedagog ta'limni tashkil etishning, komplekslashtirishning turli-tuman shakllaridan, ularni o'quv kuni doirasida, o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlaydigan va qollab quvvatlab turadigan shakllarga (masalan, guruhlarda dars suhbat- ma'ruza-mustaqil ish) integratsiya qilish imkoniga ega bo'ladi.

5. O'quvchilarni majburlab o'qitish yo'qoladi.



6. Ta'limni haqiqiy differentsiyalash, o'quvchilarning yosh, aqliy, jismoniy xususiyatlarini hisobga olish uchun shart sharoitlar yuzaga keladi.

7. O'quv kunning kaleydoskopga o'xshagan xususiyati yo'qoladi. Buning natijasida esa o'quvchilar va pedagoglar uchun darslarga tayyorgarlik

Integratsiyalashgan metamatika darsida-arifmetik materiallarni o'zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va Geometriya, mehnat ta'limi asoslarini o'rgatishga tayyorgarlik. Boshidan integratsiyalashgan kurs tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asoslari, geografiya). Boshidan integratsiyalashgan yuqoridagi kursan tashqari quyidagi fanlar birikishi mumkin: o'qish-rus tili, o'qish tabiatshunoslik o'qish tasviriy san'at o'qish musiqa tabiatshunoslik matematika tabiatshunoslik mehnat ta'limi matematika mehnat ta'limi matematika jismoniy tarbiya.

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi lozim. Integratsiya- predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi hamdir.

Integratsiyalashgan dastur, ta'lim va integratsiyalashgan dars bilan birga integratsiya uchun foydalaniladigan zamonaviy platformalar ham asta sekinlik bilan taraqqiy etib kelmoqda.

Integratsiya uchun foydalaniladigan zamonaviy platformalar quyidagilardan iborat:

Mulesoft – Katta kompaniyalar uchun keng ko'lamli integratsiya yechimlarini taqdim etuvchi platforma

..Zapier – Oson va tez integratsiyalar uchun iPaaS (Integration Platform as a Service) yechimlari

iPaaS platformalari – iPaaS platformalari integratsiyalarni tez va samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bundan bir necha yil oldin maktablarda informatika o'qitilar edi. Hozirda esa bu fan Axborot texnologiyalari bo'lib o'zgardi bu ham albatta, zamonaviy platformalar va ta'lim sohasining rivojlanishi e'tiborga olinmoqda. Bu



platformalar IT sohasining rivojlanishi uchun yaxshi samara beradi. Bundan ko'zlangan aniq maqsad, vazifalarni belgilashdir. Fanlararo bog'liqlikni mantiqan asoslash; Metod va shakllarning xilma-xilligini ta'minlash; O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; Interfaol va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish.

Samarali integratsiyalashgan ta'lim natijasida o'quvchilarda chuqur bilim, tizimli fikrlash, amaliyotga tayyorlik va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi integratsiyalashgan dars jarayonida o'quvchilar bilan birgalikda turli xil metod va usullardan foydalanish mumkin

Integratsiyalashgan darslarda quyidagi interfaol metodlar samarali hisoblanadi:

"Aqliy hujum" (brainstorming): G'oyalarni tezda ishlab chiqish va tanlash. "Debat" (munozara): Turli fanlar asosida fikr almashish. "Rol o'ynash": Hayotiy vaziyatlarni modellashtirish. "Klaster usuli": Asosiy tushunchalarni grafik tarzda ifodalash. "Fishbone diagrammasi": Muammoni tahlil qilish va sabablari hamda oqibatlarini aniqlash.

Bunday metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va o'z fikrini asoslab berishga o'rgatadi.

Integratsiyalashgan darslarga har xil fanlar bilan o'zaro bog'lanadigan fanlarni misol qilsak. Masalan,

1-misol: Adabiyot va tarix fanlari integratsiyasi

Dars mavzusi: "Amir Temur shaxsiyati adabiy manbalarda"

Dars davomida o'quvchilar Amir Temur haqidagi tarixiy faktlarni va adabiy asarlardagi badiiy tasvirlarni tahlil qilishadi. Bu esa tarixiy voqealarni estetik qabul qilish va badiiy tafakkurni rivojlantiradi.

2-misol: Matematika va texnologiya fanlari integratsiyasi

Dars mavzusi: "Geometrik shakllar va dizayn"

O'quvchilar geometrik shakllardan foydalangan holda amaliy buyumlar loyihalashadi. Bu orqali ularda matematika bilimlaridan amaliy foydalanish ko'nikmasi shakllanadi. Har bir ishning ijobiy tomoni bilan birga salbiy tomonlari ham uchraydi. Integratsiyalashgan dars jarayonida multimedia, televizor yetishmasligi,



elektr energiyasining o'chib qolishi ham mumkin. Shu bilan birga har o'qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi; Fanlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni aniqlashdagi qiyinchiliklar; Darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p vaqt talab etilishi; Ta'lim dasturlarining qat'iy chegaralanganligi ehtimoldan xoli emas.

Bunga asosiy yechimlar albatta topiladi. O'qituvchilar uchun maxsus o'quv-seminarlar va treninglar tashkil etish; Integratsiyalashgan ta'lim metodikalarini ishlab chiqish va takomillashtirish; Ta'lim dasturlarini moslashtirish va integratsiyalashgan o'quv rejalarini joriy etish; Tajriba almashish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

Xulosa

Integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarda tizimli fikrlash, ijodiy yondashuv, tanqidiy tahlil va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Integratsiyalashgan darslar orqali o'quvchilarning bilim darajasi oshadi, ularning o'zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va real muammolarni hal etish qobiliyatlari shakllanadi.

Ta'limda integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish o'quvchilarning hayotga tayyorlanishini ta'minlaydi va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva S. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari", Toshkent, 2020.
2. Karimov A. "Integratsiyalashgan o'qitish metodikasi", Samarqand, 2021.
3. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 2005.
4. Dewey J. "Experience and Education", New York, 1938.
5. UNESCO report on education for sustainable development, 2020.
6. Shodmonov Yo.G'. "Ta'limda zamonaviy metodlar", Toshkent, 2019.
7. .R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya integratsiya" Toshkent "Voriz-nashriyot" 2013.
8. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
9. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF



TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.

7. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.

8. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOYIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.